

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI BA'ZI KASB-HUNAR LEKSIKASINING TARIXIY-ETIMOLOGIK BOSQICHLARI

Shonazarova Gulnoza Shuhrat qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi kasb-hunar nomlarining kelib chiqishi, tarixiy shakllanish jarayoni, etimologik o'zgarishlari hamda madaniy omillar ta'siri o'rganiladi. Turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning kasb nomlari leksikasiga ta'siri tahlil qilinib, o'zaro tipologik farqlar va umumiyliklar yoritiladi.

Abstract. This article examines the origin of professional names in Uzbek and English languages, the process of historical formation, etymological changes, and the influence of cultural factors. The influence of socio-economic conditions in different periods on the lexicon of professional names is analyzed, mutual typological differences and commonalities are highlighted.

Kalit so'zlar: kasb-hunar leksikasi, etimologiya, tarixiy taraqqiyot, o'zbek tili, ingliz tili, semantika, leksikologiya.

Key words: professional lexicon, etymology, historical development, Uzbek language, English language, semantics, lexicology.

Kasb arabcha kasb(un) so'zidan ko'p ma'noli kasaba fe'lining o'z mehnati bilan mablag' topmoq ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, arab tilida "foyda", "yutuq", "maosh" ma'nolarini bildiradi.¹ Kasb leksemasi zamonaviy o'zbek tilida quyidagi ma'no-mazmunda qo'llanadi:

1. Ish-faoliyatning ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. Bu kishi o'zlari hosilot, kasblari agronom, kechki maktabda muallimlik ham qiladilar. (Abdulla Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari)

2. Umuman, odat qilingan ish; odat. Molning tilini bilish ham o'ziga yarasha kasb ekan (O'lmas Umarbekov, Shonli avlod)². Tahlil shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar leksemalari ba'zi hollarda sinonim sifatida qo'llanishi mumkin, biroq har doim ham bu so'zlarni bir-birini o'rniga qo'llab bo'lmaydi.

The term "profession" is a truncation of the term "liberal profession", which is, in turn, an **Anglicization** of the French term profession libérale³ [Kasb leksemasining

¹ Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг этимологик луғати.— Тошкент: Университет, 2003. 2-ж. — Б. 197.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 2-ж.— Б. 328.

³ Liberal professions". Growth. European Commission. 5 July 2016. Archived from the original on 11 January 2017. Retrieved 3 May 2018

kelib chiqishi fransuzcha profession libérale birikmasidan kelib chiqqan liberal profession birikmasidan olingan].

Demak, kasb — insonning mehnat jarayoni, har-doim bajaradigan mashgʻuloti turi; ma'lum-bir ish tasnifi malakali-tajribali bo'lishiga, bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, ko'nikma. Masalan, vrachlik kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va boshqalar. Kasb insonning asosiy tirikchilik manbaidan biri hisoblanadi.

Hunar asli arabcha soʻz boʻlib, sanʼat; bilim, koʻnikma, mahorat, ustalik; kasb kabi maʼnolarni anglatadi. Hunar soʻzining oʻzbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan boʻlib, asli “layoqat”, “sanʼat” maʼnolarini anglatadi. Keyinchalik kasb maʼnosini ham anglata boshlagan⁴. Demak, hunar va kasb soʻzlari oʻzaro maʼnodosh.

Hunar leksemasi oʻzbek tilida quyidagi maʼnolarda qoʻllanilgan:

1. Hunar, ish, yaxshi ish, hammaga maʼqul ish.
2. Mahorat, mohirlik.

Eski oʻzbek adabiy tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida hunar asosidan yasalgan hunarvar, hunariy, hunarkor, hunarmand, hunarparvar kabi soʻzlari ham isteʼmolda boʻlgan⁵. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa hunar quyidagi maʼnolarni anglatadi:

1. Muayyan koʻnikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashgʻulot; kasb. Hunar, hunardan unar.
2. Biror ishdagi mahorat, sanʼat; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat. Chekinish uchun ham hunar kerak. bu ham sanʼat talab qiladi.. (Oybek, Quyosh Qoraymas)
3. Odat tusidagi ish-harakat. Ammo eski hunaringizni qilib, otamga chaqsangiz, mendan shafqat kutmang! (Mirmuhsin, Meʼmor)
4. Boʻlmagʻur, kelishmagan xatti-harakat, qiliq, odat. Abdushukur, ovozini bunchalik boshqacha qilishini kimdan oʻrganding? Hunaringga balli-ye.. (Oybek, Tanlangan asarlar)⁶. Demak, kasb muayyan koʻnikma talab qiladigan, oliy maʼlumotli shaxslarga nisbatan ishlatilsa, hunar ham muayyan mahorat talab qiladigan, biroq oliy maʼlumotga ega boʻlmasa ham ishlab chiqarishga aloqador hunarmandlarga nisbatan qoʻllaniladi.

The word Craft comes from the Middle English word for strength or skill derived from the Old English word craeft which comes from Old High German kraft, for strength, and means “skill in planning, making, executing” and, by extension, “an occupation or trade requiring skill” and crafts, then, being those objects resulting from the application of that skill⁷ [“Craft” soʻzi qadimgi ingliz tilida “kuch” yoki “mahorat”

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. — Тошкент: Университет, 2009. — Б. 280.

⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Фан, 1985. — 4-ж. — Б. 203.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. —5-ж.— Б. 561-562.

⁷ <https://www.worldhistory.org/crafts/>

leksemasidan hosil bo'lgan bo'lib, qadimgi inglizchada "craeft" leksemasining ildizi nemis tilidagi kraft leksemasiga borib taqaladi, mahorat talab qiladigan kasb yoki hunar va hunarmandchilik, demak, ushbu mahoratni qo'llash natijasida yuzaga keladigan obyektlardir.]

Bundan ko'rinib turibdiki, hunar leksemasining ma'no-mazmun doirasi kengaygan. Kasb va hunar so'zlari juft holda kasb-hunar shaklida qo'llanganida kengroq tushuncha anglashiladi. Tilimizdagi kasb-kor, peshva so'zlari ham kasb, hunar so'zlari bilan o'zaro ma'nodoshlikka ega. Kasb-kor juft so'zi o'zbek tilida arabcha kasb "ish" ma'nosini anglatuvchi, tojikcha kor so'zlaridan tuzilgan bo'lib, kasb-u kor shakliga ham ega bo'lib, "ish-faoliyat turi", "ish-mashg'ulot" ma'nosini anglatadi⁸. Peshva⁹ esa eski o'zbek adabiy tilida ish, amal, hunar, odat, san'at ma'nolarini anglatgan bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida arxaik so'z hisoblanadi.

Ijtimoiy hayotning rivojlanishi tilning rivojlanishiga hamisha turtki berib turgan, bu – tilning rivojlanishidagi yetakchi qonuniyat. Har bir tilning leksikasi doim harakatda, o'zgarishda bo'ladi.

Til rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisadir. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti natijasida o'zbek tilining kasb-hunar nomlari tarkibida eskirish, yangilanish kabi hodisalar yuz beradi. Bu, albatta, o'zbek tilining kasb-hunar leksikasiga ham xos.

Bizga ma'lumki, barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilidagi kasb-hunar nomlari ham boshqa lug'aviy qatlamlar, guruhlar kabi murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Ilk davrlarda u turkiy qabila tillari va ba'zi qadimiy chet tillarning ayrimlarini o'zida birlashtirgan holatda bo'lgan bo'lsa, keyinchalik fors-tojik, arab tillari va boshqa tillardan kasb-hunar nomlari qabul qilingan. Ma'lumki, kasb-kor leksikasining etimologiyasi qadimgi davrlarga borib taqaladi va mazkur birliklarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. O'z qatlamga mansub kasb-hunar nomlari.
2. O'zlashma qatlamga mansub kasb-hunar nomlari.

O'zbek tili kasb-hunar nomlarini tarixiy-etimologik nuqtai nazardan tahlilida, avvalo tarixan, genetik jihatdan o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan kasb-hunar nomlari aniqlab olinadi. Bunday so'zlar o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida mavjud bo'lgan nomlardir. O'z qatlamga mansub kasb-hunar nomlariga eski, hozirgi o'zbek tilida tilning o'z vositalari, ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan kasb-hunar nomlari kiradi. Qadim zamonlardan beri turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar juda ko'plab kasb va hunarlar bilan mashg'ul bo'lishgan.

M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 ta so'z izohlangan (boshqa hisobga ko'ra Mahmud Koshg'ariy izohlagan

⁸ Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг этимологик луғати.— Тошкент: Университет, 2003. — 2-ж. — Б. 197.

⁹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Фан, 1983. —1-ж. — Б. 39.

soʻzlarning soni 9000 dan oshadi). Bu soʻzlar turkiy xalqlar hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Lugʻat soʻzligidan turkiylarga xos kiyim-kechak, uy-roʻzgʻor, bezaklar, musiqa, asbob-uskuna, qurol-yarogʻ, xoʻjalik buyumlarining nomlari, qarindoshlik atamalari, hayvon va oʻsimliklarning, kasalliklar xususan, oʻzbek tiliga xos bir necha tarixiy, arxaik, umumturkiy kasb-hunar nomlari ham berilgan va izohlangan. Unda keltirilgan bir qancha kasb-hunar nomlari hozirga qadar yetib kelgan.

M. Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asaridagi alim – olim, etukchi – etikdoʻz, satgʻuch — sotuvchi, temurchi – temirchi, qorugʻchi – qoʻriqchi kabi kasb-hunar nomlarini nafaqat qadimgi turkiy tilda va eski oʻzbek tilida, balki ayrim fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda hozirgi oʻzbek tilida ham qoʻllanilayotganligi fikrimiz dalilidir¹⁰.

Quyida Mahmud Koshgʻariy asari misolida qadimgi va eski turkiy tildagi ayrim tarixiy va arxaik kasb-hunar nomlarini koʻrib chiqamiz.

Arqish – yurtidan uzoqqa ketgan kishiga yuborilgan xabarni yetkazuvchi odam, yaʼni chopar, elchi, xabarchi: Aning arqishi keldi – Uning elchisi, xabarchisi keldi. (DLT, 25-b.) Arqish soʻzi eski turkiy tilda chopar maʼnosidan tashqari quyidagi maʼnolarda ham qoʻllangan: 1) karvon; 2) avrash, afsun¹¹.

Demak, arqish soʻzi oʻtmishda omonim sifatida isteʼmolda boʻlgan.

Elbäshi – otboqar. Otboqarni el bashi deydilar. Bu viloyat boshligʻi demakdir. Lekin otboqarni tushunadilar. (DLT, 42-b.) - чы/ — chi affiksi vositasida asosan otdan, baʼzan feʼldan kasb, hunar maʼnosini ifodalovchi otlar yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud boʻlgan va bu qadimgi yodgorliklar tilida ham aks etgan. Bu affiks bilan ot yasalishi XI asrda turkiy tillarning barchasi uchun umumiy holat ekanligini Mahmud Koshgʻariy ham uqdirib oʻtgan¹².

Bulardan anglashiladiki, turkiy tillarda azaldan -chi affiksi vositasida kasb-hunar nomlari yasash anʼanasi faol boʻlgan. Kasb-hunar nomlarining ifodalovchi lugʻaviy birliklar koʻproq -chi affiksi vositasida hosil qilingan va bu anʼana turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tilining barcha taraqqiyot bosqichlarida saqlanib qolgan.

Bu fikrimizni Alisher Navoiy tomonidan fors-tojik tilida kuzatilmaydigan, oʻzbek tiligagina xos boʻlgan -ch va -chi affikslari bilan mansab, hunar maʼnosidagi otlar yasalishi haqida fikr yuritilib, oʻnlab dalillarni keltirilgani ham tasdiqlaydi: “Mansabda andoqki, qoʻrchi va suvchi va xizonchi va kerak-yarogʻchi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yoʻsunlugʻ koʻptur. Mansabda andoqki, qoʻrchi va tamgʻachi va jibachi va yoʻrgʻachi va halovchi va kemachi va qoʻychi.

¹⁰ Қаранг. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.

¹¹ Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 25.

¹² Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1966. – II т. – Б. 54.

Andoqki, qush hunarida dag'i bu istiloh, bordur, andoqki, qozchi va quvchi va turnachi va kiyikchi va tovushqanchi"¹³.

Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida -chi affiksi bilan yasalgan kasb-hunar nomlarining salmog'i ko'pligi ham mulohazalarimizning yorqin dalilidir.

Hatto hozirda ham -chi vositasida kasb-hunar nomlari yasalishi davom etmoqda: bizneschi, birjachi, kompyuterchi, tijoratchi, soliqchi kabi. Chunonchi, "Devonu lug'otit turk" asarida -chi affiksi bilan yasalgan: emchi, etukchi, etmakchi, etchi kabi yasama kasb-hunar nomlari kuzatiladi. Ajaqchi – kulol.¹⁴ Bu kasb-hunar nomi ajaq – idish so'zidan -chi affiksi vositasida yasalgan. Ajaqchi ajaq sirladi – kulol idish (kosa, lagan) ustiga gul solish, sirlash uchun tayyorgarlik ko'rdi.(DLT, 467- b.). Emchi – tabib. Em – davo, dori; davolovchi tabibga emchi deyilishi shundandir. (DLT, 44- b.). Bu kasb-hunar nomi o'zining uzoq tarixiga ega. Hozirgi o'zbek adabiy tilida emchi leksemasi polisemantik so'z hisoblanib, quyidagi ikki ma'noda qo'llanadi:

1. Emlovchi tabib, vrach, hamshira.

2. Etnografiyaga oid termin. Emi-dimi, duo, qoqi-suquqlar bilan davolovchi tabib. Bir man o'zim qoqimchi, Ham emchiman, alaschi. (Hamza)¹⁵.

Dalillardan ko'rinadiki, emchi qadimiy lug'aviy birlik bo'lib, hozirga qadar tilimizda iste'molda. Hozirgi o'zbek adabiy tilida uning ma'no doirasi kengaygan, hatto etnografik termin maqomini olgan. Shuningdek, "Devonu lug'otit turk" da tabib ma'nosidagi sag'un, otachi so'zlari ham kuzatiladi. Otachi – tabib. Ot dori, davo degani. Tabib ma'nosidagi otachi so'zi shu asosdan yasalgan. (DLT, 187- b.)

Sag'un – tabib. Bu kasb-hunar nomi sog'liq, sog'lomlik ma'nosini anglatuvchi sag' (hozirgi sog') asosi bilan bog'liq, ya'ni undan yasalgan. (DLT, 214-b.)

Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida sag' omonimik xarakteriga ega bo'lib, sog'liq, sog'lomlik ma'nosidan tashqari quyidagi tushunchalarni ham anglatgan: 1) o'ng; 2) aql; 3) ziyraklik, tiyraklik; 4) yung savaydigan savag'ich kabi. (DLT, 213- b.).

Etmakchi – novvoy. Demak, novvoy ma'nosidagi mazkur so'z non tushunchasini anglatuvchi etmak asosiga -chi affiksini qo'shilishidan yasalgan. Bu kasb-hunar nomi eski o'zbek tilida ham, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ham itmakchi fonetik variantida ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin: Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq. (Mahbub ul-qulub, 46-47). Zamonaviy o'zbek tilida esa etmakchi // itmakchi qo'llanmaydi, arxaik so'z hisoblanadi.

Sart so'zining ma'nosi haqida ilmiy manbalarda turli qarashlar bor. Ayrim manbalarda sart atamasi o'zbek va tojiklardan boshqa alohida elatni ifodalashi

¹³ Қаранг. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн//Мукаммал асарлар тўплами. Ўйгирма томлик. – Тошкент: Фан, 2000. – 16-т. – Б.22.

¹⁴ Девону луғотит турк Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 214,213.

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5 жилд. – Б. 38.

ta'kidlansa, boshqa manbalarda bu so'z mahalliy xalqni kamsitish uchun rus mustamlakachilari tomonidan o'ylab chiqarilgan – haqoratni bildiruvchi so'z deyiladi. Aslida sart atamasi alohida millatni nomini bildirgan emas. Shuningdek, o'zbeklarni tahqirlash uchun ham ishlatilmagan. XVI asrdan boshlab, Chirchiq, Ohangaron, Qoradaryo va Norin daryosi vodiysida yashovchi aholi, ularning qaysi tilda so'zlashishlaridan qat'i nazar, sartlar deyilgan. Bundan keyin Zarafshon vodiysi va Xorazm vohasidagi o'troq, dehqon-kosib, hunarmand aholi ham sart nomi bilan yuritila boshlangan edi. Demak, sart atamasi etnik ma'noni emas, kishilarning kasbi, xo'jaligi, turmush tarzini anglatgan. Sart lug'aviy birligi birinchi marta Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida kuzatiladi: Eshitkil naku tar bu sartlar bash. Sart so'zi eski turkiy tilda savdogar ma'nosida iste'molda bo'lgan:

Sart aziqi arig' bo'lsa jo'lda jer. (DLT, 209- b.) Sart so'zi asli forsha, sanskrit tiliga mansub sarthavaha – karvonboshi, savdogar so'zidan olingan. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga doir lug'atlarda bu so'zga quyidagicha leksikografik izoh beriladi:

1. Tarixiy termin. Qadimda O'rta Osiyodagi shahar va qishloqlarda yashab, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan turkiy xalqlar (jumladan o'zbeklar).

Tabib so'zi arabcha so'z asli tibib(un) shakliga ega; o'zbek tiliga itqi undoshini t undoshiga, i unlisini a unlisiga, cho'ziq i unlisini i unlisiga almashtirib qabul qilingan: tabib – tabib; asli ko'p ma'noli tabba fe'lining "davoladi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, arab tilida "shifokor", "vrach" ma'nosini anglatadi; o'zbek tilida "xalq tabobati asosida davolovchi shifokor" ma'nosini anglatish uchun ishlatiladi.

"Devonu lug'otit turk" etikdo'z so'zi etukchi shaklida berilgan. Hozirgi qassob so'zining tarixiy varianti etchi so'zi esa go'sht ma'nosidagi et asosidan yasalgan. Yuqorida keltirilgan lug'aviy birliklar turkiy tillar tarixda o'z doirasida ish ko'rganligini, ancha sof bo'lganligidan dalolat beradi. O'tmishda bilga omonimik so'z bo'lib quyidagi ma'nolarda qo'llangan: 1) hakim, hikmatshunos; 2) olim; 3) oqil, aqlli kabi. Demak, bilga semantik strukturasida kasb-hunar ma'nosi ham mavjud. Bit – yozmoq so'zidan bituvchi, ya'ni xattot ma'nosidagi bititgiychi oti yasalgan. Jatchi – afsunchi. Jat – yomg'ir va shamol keltirish uchun toshlar bilan qilinadigan fusungarlik. Afsunchiga jatchi deyilishi shundan. Jatchi jatladi – afsunchi yomg'ir yog'dirish uchun yada toshi bilan duo o'qidi. (DLT, 119- b.) Demak, jatchi kasb-hunar nomi jat asosidan yasalgan. Jirag'u – cholg'uvchi, ashulachi. Jirag'u so'zi g'azal, maqom, kuy ma'nosini anglatuvchi jir so'zidan morfologik usul bilan yasalgan. (DLT, 130- b.) Jichi – tikuvchi. Ji – kiyim choki. Tikuvchiga jichi deyish ham shundan. (DLT, 135- b.) Jurchi – hunarmand, usta, yo'l ko'rsatuvchi. (DLT, 143- b.) Jugurg'an – Chin savdogarlarining musulmon shahriga savdo uchun chiqqan karvonlaridan oldin xat-xabarlarini yetkazuvchi chopar. (DLT, 145-b.) Salchi – oshpaz. Aslida bu so'z shu ma'noda bo'lsa-

da, so'ng oshpaz pichog'iga nisbatan ham qo'llangan. Salchi bichak deyilgani kabi . (DLT, 206- b.)

Tabug'chi – xizmatkor. Bu kasb-hunar nomi tabug' otidan -chi affiksi vositasida yasalgan. (DLT, 240- b.) Tabug' so'zi quyidagi ma'nolarni anglatgan: 1) xizmat qilish; xizmat; 3) toat-ibodat qilish kabi. (DLT, 240- b.) Terguchi – to'plovchi. Tergu aslida turli ovqatga to'la stol, dasturxon degani. Dasturxon tuzovchi shaxs terguchi deb ataladi. Demak, **terguchi** hozirgi dasturxonchi so'zining tarixiy muqobilidir. (DLT, 226-b.)

O'zbek tiliga arab tilidan 50 dan ortiq kasb-hunar nomlari o'zlashgan bo'lib, ular quyidagilar: adib, askiyachi, attor, bazzoz, baqqol, binokor, bo'zchi, jarchi, iqtisodchi, kabobpaz, kosib, kotib, maktabdor, mashshoq, me'mor, mirob, muallim, mudarris, mudofaachi, murabbiy, musavvir, muxbir, mug'anniy, muhandis, muhrdor, naqqosh, notiq, nosir, noshir, rassom, raqqosa, san'atkor, soatsoz, surnaychi, tabiatshunos, tabib, tadbirkor, farrosh, xattot, xizmatchi, shifokor, shoir, qassob, qissanavis, g'avvos, hakim, hammol, hofiz, huquqshunos.

O'zbek tiliga fors-tojik tilidan 40 dan ortiq kasb-hunar nomlari o'zlashgan. Jumladan, aravasozi, aravakash, bastakor, binokor, bozorgir, bog'bon, gazlamafurush, gilando'z, gulchi, go'rkov, darvozabon, dasturxonchi, zargar, zardo'z, kabobpaz, kavushdo'z, kashtado'z, mardikor, mahsido'z, mevafurush, mo'ynado'z, navozanda, novvoy, noskash, oshpaz, pazanda, payvandchi, paxtakor, podachi, posbon savdogar, sartarosh, somsapaz, usta, xonanda, chilangar, chorvachi, g'ijjakchi ¹⁶ kabi. Demak, fors-tojik tilidan o'zlashgan kasb-hunar nomlarining zaruriy, seriste'molligi, o'zbek tiliga allaqachon singiganligi, bu so'zlarning o'zbek aholisiga o'z tili leksikasidek tuyulishida yorqin seziladi.

O'zbek tiliga bir qancha ruscha-internatsional kasb-hunar nomlari o'zlashgan bo'lib, ular quyidagilar: dublyor, doktor, dirijyor, diktir, grimchi, gimnastikachi, gidrolog, vetvrach, venerolog, bug'al'ter, basketbolchi, bankir, atletikachi, arxeolog, antropolog, akusher, aktyor, advokat, agronom kabi.

Ularning har biri o'z ma'nosiga, qo'llanish doirasi va xususiyatiga ega. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak.

Dispatcher inglizcha dispatch¹⁷ leksemasidan olingan bo'lib, "tez bajaraman" degan ma'no va mazmunni ifodalab keladi.

Hozirgi kunda ham fan-texnika rivoji natijasida ingliz, nemis, fransuz va boshqa ko'plab dunyo tillaridan kasb-hunar nomlari o'zbek tiliga kirib kelmoqda.

¹⁶ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – Б. 191.

¹⁷ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/dispatch>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Liberal professions". Growth. European Commission. 5 July 2016. Archived from the original on 11 January 2017. Retrieved 3 May 2018
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1985. – 4-ж. – Б. 203.
3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.
4. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн//Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. – Тошкент: Фан, 2000. – 16-т. – Б.22.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 280.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5 жилд. – Б. 38.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 2-ж.– Б. 328.
8. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/dispatch>
9. <https://www.worldhistory.org/crafts/>